

Sultonova Dilovar Ne'matillo qizi
*Jo'ybori Kalon ayol-qizlar o'rta maxsus
 islam ta'lim muassasasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada shukr nima ekani, u qanday amalga oshirilishi, uning turlari, hayotimizda qanchalik zarur va foydali ekani oyatlar va hadisi shariflar asosida ochib berilgan.*

Аннотация: В статье на основе аятов и хадисов объясняется, что такая благодарность, как она реализуется, ее виды, насколько она необходима и полезна в нашей жизни.

Annotation: the article explains what gratitude is, how it is implemented, its types, how necessary and useful it is in our lives based on verses and hadiths.

Alloh taolo insanni mukarram qilib yaratib, unga sanqsiz ne'matlarni, tunganmas yaxshiliklarni ato qildi, bu ne'mat va yaxshiliklari bilan uni boshqa yaratilganlardan afzal qildi. Agar bandalar shukr qilsalar, ularga ne'matlarini ziyod qilishini va da qildi va itoat qilsalar bu ne'matlar davomiyligi va boqiyligining kafolatini berdi. Allah taoloning bandalariga bergen hadya va in'omlari biz uchun ko'rinib turgan ochiq va zohiri yoki biz ko'ra olmaydigan botiniy va yashirindir, ular bizga ma'lum va yoki hali nomalumdir. Allah taoloning Odam bolasiga ko'rsatgan eng avvalgi ikromi bu uni go'zal xilqatda, a'zolarini mutanosiblikda va chiroyli ko'rinishda yaratgani, unga halol va haromni, yaxshi va yomonni, hidoyat va zalolatni, foyda va zararni o'rnatgani, buning uchun ko'z, qulqoq va aql bilan fazl ko'rsatganidir.

Ba'zi ne'matlarni haqida Payg'ambarimiz alayhissalom bizga xabar bergenlar. Ibn Abbos raziji allahu anhu rivoyat qiladilar: «Nabiy sallallohu alayhi va sallam: «Ikki ne'mat mavjud bo'lib ko'pchilik odamlar uni qo'ldan boy beradirlar. Bu — tansihatlik birlan bo'sh vaqtadir», - der erdilar». Yana hadisi sharifda “tinchlik va xotirjamlik ikki ulug' ne'matdirki, bundan ko'p odamlar mahrumdirlar” deyiladi.

Ba'zan biz anglab yetmagan, e'tibor ham bermagan ne'matlarimiz haqida Rabbimiz o'zi eslatib turadi. Hadisi qudsiyda keladi: “Ey Odam farzandi! Sen ikki ne'mat orasida tong ottirding. Ulardan qay biri senga zararliroq ekanini bilmaysan: odamlardan bekitilgan gunohlaringmi yoki sen haqli bo'limgan holda eshitgan maqtovlaringmi? Agar odamlar sen haqingda Mening bilganlarimni bilganlarida, senga salom ham berishmas edi. O'sha bergenlarimdan ham ulug'rog'i ofiyat, odamlarning hojati senga tushib turganida sening odamlardan behojat bo'lising, ularning ozoridan himoya qilinishingdir. Menga hamd ayt, ne'matimning qadriga yet, amalingni riyodan xalos et”.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Demak, bandalariga bu turli xil ikrom va ne'matlar berilishining hikmati, insonlarning Alloh taologa shukr qilishlari, U zotga taslim bo'lib, hamd aytishlari va U zotga hech narsani sherik qilmay ibodat qilishlari uchundir.

Alloh taolo bizlarga ato etgan ne'matlarning shukri qanday amalga oshiriladi? Qanday qilsak shukr qilguvchilardan bo'lamiz?

Ne'matlarning shukri ushbu uch ish bilan amalga oshadi:

1. Ne'mat beruvchi – mun'im zotni e'tirof etish.
2. Qalb bilan Alloh taologa muhabbat qo'yish.

3. Ne'matlarni Alloh taolo yaxshi ko'radigan narsalarga, rozi bo'ladigan ishlarga sarflashdir.[2,187]

Shukrning yana bir ifodasi ne'matlarni til bilan gapirishdir. "Rabbing ne'mati haqida so'zla" oyatiga binoan, Allohnинг ne'matlari haqida so'zlash shar'an matlubdir. Rabbingiz ne'matlarini eslang oyatidan uni shukrini ado qiling, uni ta'sirini ko'rsating devilgani holda, buyuk bir odob ta'lim berilmoqda. U ham bo'lsa ne'mat haqida gapirish va uni ko'rsatish, olyjanoblik, sahiylik kabi go'zal axloqlar bilan xulqlanishga qiziqtilmoqda. Shuning uchun banda o'ziga berilgan ne'matlarni eslatma va ibrat uchun gapirib turishi ma'qul sanalgan,

"Karamli zotlar Alloh taolo ularga o'z fazlidan ato qilgan narsalarni sarflaydilar, ularga bu narsalarni yetkazgan Zotga hamd aytadilar". Imom Qurtubiy bu oyat tafsirida shukr va sano bilan Alloh taoloning ne'matlarini yoying, gapiring, shukr bilan uni e'tirof qiling deganlar. No'mon ibn Bashirdan Imom Sha'biy rivoyat qilishicha, Payg'ambar alayhissalom: "Kim oziga shukr qilmasa, ko'piga ham shukr qilmabdi. Kim insonlarga shukr qilmasa, Alloh taologa shukr qilmabdi. Ne'matlarni gapirish shukrdir. Uni tark qilish esa kuffardir" dedilar.

Molik ibn Nazla al-Xushamiy: "Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning oldilarida yirtiq kiyim bilan o'tirgan edim, moling bormi dedilar. Ha, Yo Rasululloh! dedim. Modomiki, Alloh senga mol ato qilgan bo'lsa, uning asari sening ustingda ko'rinsin dedilar". Bu haqida Abu Sa'id al-Xudriy roziyallohu anhudan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Alloh taolo go'zaldir, go'zallikni yaxshi ko'radi va bandasida o'z ne'matlarining asarini ko'rmoqni yaxshi ko'radi" dedilar.

«Agar shukr qilib, iymonli bo'lsangizlar, Alloh sizlarni nega azoblasin?! Axir Alloh (bandalarining toat-ibodatlariga savob ato etish bilan) shukr qilguvchi va bilguvchi bo'lgan zot-ku?!» (Niso, 147). Shukrning hikmatlari nimadan iborat?

Qur'oni karim oyatlariga teran nazar solsak, Alloh taolo O'z kalomida ne'matlarga shukr keltirishni iymon bilan bog'laydi. Alloh taolo Yer ahliga yuborilgan avvalgi payg'ambarlardan Nuh alayhissalomni shukr sifati bilan maqtaydi. Alloh taolo tomonidan Muso alayhissalomga nubuvvat va risolatni ato qilingan va gaplashilgan vaqtida ham dastlabki amrlardan shukr qilishga buyuriladi. O'zining do'sti Ibrohim alayhissalomni ne'matlariga shukr keltiruvchi ekanini aytib,

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

madh qiladi. Dovud alayhissalomni ham shukr qilishga buyuradi. Sulaymon alayhissalom Rabbidan shokirlardan bo‘lishini so‘rab duo qilsa, Luqmon alayhissalom ham, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham shukrga buyurildilar. Bizning Payg‘ambarimiz alayhissalom barcha yaratilganlar ichida eng shukrlisi edilar. Ochlikdan qornilariga tosh bog‘ladilar, u zotning oldingi va keyingi gunohlari kechirildi, shunga qaramay oyoqlari shishib ketgunlaricha qiyomul laylda turdilar va shukr qiluvchi banda bo‘lmayinmi dedilar. Payg‘ambarimiz alayhissalom shunday degan bo‘lsalar, hozirgi to‘kinlik-farovonlik davrida biz faqat shukrimizni ziyyoda qilishga e’tibor qaratishimiz lozim bo‘ladi.

Rabbimizning insonlarga qilgan eng avvalgi vasiyati O‘ziga va ota-onasiga shukr keltirish haqida bo‘ldi. Shuning uchun barcha payg‘ambarlar o‘z qavmlarini shukrga buyurgan edilar. Shukr ahli bandalar orasida yaxshiliklar bilan xoslangan bo‘lib, ularga turli fitnalar ta’sir ko‘rsatmaydi. Iblis alayhillä’na shukr maqomining qadrini, ibodatlarni asosi va a’losi ekanini bilganidan ham asosiy maqsadini insonlarni shukrdan to’sishga qaratti. Oyatlarga binoan qachonki, Saba’ qavmi o‘zlariga berilgan ne’matlarni inkor qilganlarida Alloh taolo ularni bu ne’matlardan mahrum qildi va ularga turli azoblarni yubordi.

Shukr barcha mayjud ne’matlarni saqlovchisi va yo‘q ne’matlarni jalg qiluvchisidir. Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu aytadi: Ne’mat shukrga bog‘langandir, shukr ziyodalikka ta’liq qilingandir, shukr kesilmaguncha, ziyodalik kesilmaydi. Ya’ni, kimki shukr bilan rizqlangan bo‘lsa, ziyodalik bilan rizqlanibdi: “Yana Rabbингiz e’lon qilgan (bu so‘zlar)ni eslangiz: qasamki, agar (bergan ne’matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyyoda qilurman. Bordi-yu, noshukrlik qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir”. Demak, Alloh taologa iymon keltirib, taqvo qilish, shukr qilish va itoat etish dunyo va oxirat eshiklarining ochilishiga sabab bo‘ladi.

Alloh taologa shukr keltirish amalda qanday bo‘ladi?

Alloh taolega shukr keltirish qalb, til va a’zolar bilan bo‘ladi. Qalb bilan shukr – ne’matni Boriysiga bog‘lash bilan bo‘ladi. Til bilan shukr – hadya qiluvchiga hamdni ko‘paytirish bilan bo‘ladi. Payg‘ambarimiz alayhissalom “Alhamdulillah tarozini to‘ldiradi” dedilar. Allohga hamd aytish shukrning avvali va asosidir. U Qur’oni karimning birinchi oyati hamdir: Olamlarning Rabbi Allohga hamdlar bo‘lsin. A’zolar bilan shukr qilish esa Alloh taolo rozi bo‘ladigan ishlarga yordam berish va g‘azabiga xizmat qiladigan ishlardan qaytarish bilan bo‘ladi. Masalan, ko‘z shukri u bilan harom qilingan narsalarga qaramaslik, til shukri u bilan faqat haqni gapirish, sidqdan boshqasiga ishlatmaslik, quloqlar shukri u bilan g‘iybat, bo‘hton va boshqa muharromotlarni eshitmaslikdir. Shuningdek, Alloh taolo insonni ota-onasiga shukr qilishga buyuradi. Ota-onasiga shukr qilish – ularga yaxshilik va ehson qilish, haqlariga duo qilish, roziligi uchun lutf va mehribonlik

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

ko'rsatish hamda kamtarlik qanotini tutishdir, buyurgan ishlariga qulqosiz bo'lish, norozilik, itoatdan og'rinishlar isyon hisoblanadi.

Rabbimiz shukr sifati bilan sifatlangandir, yaratilganlaridan uning uchun eng sevimliyi ham shukr sifati bilan sifatlanganlardir. Ya'ni, U zot shakurdir, shokirlarni yaxshi ko'radi. Agar Sen birovga yaxshilik qilsang, lekin unda shukrni ko'rmasang, savobini Allohdan izlagin, qanoatli bo'l, insonlarning shukrlisi bo'lasan. Oziga shukr qilmagan, ko'pga ham shukr qilmaydi. Abu Mug'iyradan qanday qilib tong orttirdingiz deb so'ralganida, ne'matlarga ko'milgan, lekin shukridan ojiz holda degan ekanlar. Shuning uchun insonlar ofiyat paytida qanchalar shukrli ekanini, balolar paytida qanchalar sabrli ekanini ko'rishlari mumkin bo'ladi.

Qur'oni karimda shukr qilishga undash uslublari quyidagicha:

1) Amr (buyruq ohangidagi) uslubida:

Baqara, 172

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا كُلُّاً مِنْ طَيْبٍ إِنَّمَا رَزْقُنَاكُمْ وَآشْكُرُوا لِلَّهِ إِنْ كُنْتُمْ إِيمَانًا تَعْبُدُونَ

Ey iymon keltirganlar! Sizlarga rizq qilib bergenimiz pok narsalardan yenglar va Allohga shukr qilinglar, agar Unga ibodat qiladigan bo'lsalaringiz.[1,26]

Nahl, 114

فَكُلُّا مِمَّا رَزَقَنَا اللَّهُ حَلَالًا طَيْبًا وَآشْكُرُوا نِعْمَتَ اللَّهِ إِنْ كُنْتُمْ إِيمَانًا تَعْبُدُونَ

Bas, Alloh sizga rizq qilib bergen narsalardan halol pok holida yeng. Va agar Unga ibodat qiladigan bo'lsangiz, Allohnинг ne'matiga shukr qiling.[1,280]

Saba' 15

أَفَدْ كَانَ لِسَبَبِِ فِي مَسْكِنِهِمْ أَيْةٌ جَنَّاتٍ عَنْ يَمِينِ وَشَمَائِلٍ كُلُّا مِنْ رَزْقِ رَبِّكُمْ وَآشْكُرُوا لَهُ بُلْدَةً طَيْبَةً وَرَبُّ غَفُورٍ

Batahqiq, saba'liklar uchun o'z maskanlarida oyat-belgi bor edi-o'ng va chapdan ikki bog' bor edi. «Robbingiz rizqidan yeng va Unga shukr qiling! Ne go'zal yurtingiz va o'ta magfirath Robbingiz (bor)», (dedik).[1,430]

Saba'liklar Yaman janubida yashab o'tgan qavmdir. Bobolari Saba' ibn Yaxshab ibn Qaxoton ismi bilan «Saba' qavmi», «saba'liklar», deb nomlanganlar. Ular juda ham mosildor yerga ega bo'lganlar. Sulaymon alayhissalom bilan qissasi o'tgan malika ham shu yurtdan bo'lgan. Oyatda o'sha qavm haqida xabar berilmoqda.

Baqara, 152

فَادْكُرُونِي أَدْكُرْكُمْ وَآشْكُرُوا لِي وَلَا تَكْفُرُونَ

Bas, Meni eslangiz, sizni eslayman. Va Menga shukr qilingiz, kufr qilmangiz.

Ankabut 17

إِنَّمَا تَعْبُدُونَ مِنْ دُونِ اللَّهِ أُوْئِنَّا وَتَخْلُقُونَ إِفْكًا إِنَّ الَّذِينَ تَعْبُدُونَ مِنْ دُونِ اللَّهِ لَا يَمْلِكُونَ لَكُمْ رِزْقًا فَابْتَغُوا عِنْدَ اللَّهِ الرِّزْقَ وَاعْبُدُوهُ وَآشْكُرُوا لَهُ إِلَيْهِ تُرْجَعُونَ

Albatta, sizlar Alloho qo'yib, butlarga ibodat qilmoqdasiz va uydirmalar to'qimoqdasiz, xolos. Albatta, Allohdan o'zga ibodat qilayotgan narsalaringiz sizga rizq berishga molik emaslar. Rizqni Allohnинг huzuridan istanglar. Unga ibodat va shukr qilinglar. Ungagina qaytarilursiz», dedi.[1,398]

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**2) Qiziqtirish uslubida:**

Alloh taolo iymonda sobit turib, ne'matlarga shukr qilgan bandalarini eng yaxshi mukofotlar bilan mukofatlashini va'da qiladi.

Ibrohim, 7

وَإِذْ تَأْذَنَ رَبُّكُمْ لَئِنْ شَكَرْتُمْ لَا زَيْدَنَّكُمْ وَلَئِنْ كَفَرْتُمْ إِنَّ عَذَابِي أَشَدُّ

Va Robbingiz sizga: «Qasamki, agar shukr qilsangiz, albatta, sizga ziyoda qilurman. Agar kufr keltirsangiz, albatta, azobim shiddatlidir», deb bildirganini eslang.[1,256]

Batahqiq Robbingiz ta'kid o'laroq bildirdiki, agar ne'matlariga shukr qilsangiz, albatta ushbu ne'mat ustiga ziyodanik qiladi.

3) Maqtov uslubida:

Isro,3

ذُرَيْةٌ مَنْ حَمَلْنَا مَعَ ثُوْجٍ إِلَهٌ كَانَ عَنِّا شَكُورًا

(Ey) Nuh bilan birga ko'targanlarimizning surriyotlari! Albatta, u o'ta shukrli banda edi.[1,282]

Nuh (a. s.) o'ta shukrli banda edi. Unga iymon keltirganlar ham o'ta shukrli bandalar edilar. Sizlar ham shukrli bo'linglar.

Ularga najot bergen va kemada Nuh alayhissalom bilan birga kemada ko'targan kishilarimizning surriyotlari Allahga ibodatlarida sherik qilmanglar. Uning ne'matlariga shukr qiluvchi bo'linglar. Nuh alayhissalomga ergashuvchi bo'ling. Albatta u Allahga qalbi, tili va a'zolari bilan shukr qiluvchi banda bolgan edi.

4) Istifhom uslubida:

Anbiyo,80

وَعَلَمْنَاهُ صَنْعَةً لَبُوِسٍ لَكُمْ لِتُحَصِّلُكُمْ مَنْ بِأَسْكُنْمُ فَهُنْ أَنْتُمْ شَاكِرُونَ

Biz unga sizlar uchun sizni yomonlikdan saqlaydigan kiyim qilish san'atini o'rnatdik. Endi shukr qilarsizlar?![1,328]

Alloh subhanahu va taolo xabar berib aytadiki, Dovud alayhissalom sovut yasash kasbi bilan xoslangan edi.

Istifhom ma'nosi o'z ichiga buyruq ma'nosini ham o'z ichiga oladi. Ya'ni Allahga sizga bergen ne'matlariga shukr qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi – Toshkent,2019-B.26, 280, 430, 398, 256, 282, 328.

2.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya – Toshkent.Hilol,2019-B. 187.

3.Qadriyat.uz.